



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 / ISS:5 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).

№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ATMOSFERAGA CHIQARILADIGAN CO₂ EMISSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Xoshimov P.Z, Egamnazarova G.Sh</i>	4
2.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL <i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna, Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy o'g'li</i>	8
3	TOSHKENT MINTAQASIGA XOS AGROTURIZM RESURLARI HAMDA INFRATUZILMA HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI <i>Shodiyeva Nafosat Hamza qizi</i>	14
4	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: ASOSIY XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA IMKONIYATLARI <i>Shadmanov Zuhridin Zokirxodjayevich</i>	18
5	TIJORAT BANKLARDA ISHLAB CHIQISHDA FOYIZ XAVFLARINI BOSHQARISHINI MUSTAHKAMLASH <i>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</i>	22
6	УЛУЧШЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВНЕДРЕНИЯ ВОДОЭКОНОМИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПОГИСТАН <i>Сейтназаров Бахадир Муратбаевич</i>	26
7	KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATI OPERATSIYALARINI TASNIFLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN KONSEPTUAL MODEL: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI <i>Umarova Shahnoza</i>	30
8	TRANSPORT INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI <i>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</i>	31
9	SHAXSIY SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBASI <i>Isayeva Xolbib Boboqulovna</i>	34
10	TIBBIY SUG'URTANING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI <i>Yusupov Akbar Haydarovich</i>	39
11	MOL-MULK SUG'URTASIDA RISKLARNI BAHOLASH VA ANDERRAYTING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Tuxtarova Maftuna Yo'ldashboy qizi</i>	44
12	TURAR-JOY KO'CHMAS MULKINI GEDONIK MODELLASHTIRISHDA FUNKSIONAL SHAKL TANLOVI <i>Xushvaqtoy Jasur Shuhrat o'g'li</i>	49
13	HUDUDIIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO "YASHIL" STANDARTLAR TIZIMI <i>Salomov Abdusalom Ismatovich</i>	54
14	MILLIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SUBSIDIALASH TIZIMI SAMARADORLIGI <i>Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich</i>	57
15	O'ZBEKISTONDA HUDUDIIY INVESTITSIYA SIYOSATINING IQTISODIY-INSTITUTSIONAL TAHLILI VA NATIJADORLIK MODEL (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA) <i>Xudayberganov Soxibnazar Kimyanazarovich</i>	62
16	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVARLAR EKSPORTI TARKIBINING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK TASNIFLAGICHLAR ASOSIDA STATISTIK TAHLILI <i>Norkulov Shavkat Shakarbayevich</i>	66
17	STRATEGIK MOLIYAVIY HISOB TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI, KO'RSATKICHLARI VA USULLARI <i>Umarova Shaxlo Abduvaliyevna</i>	70
18	OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI SHAROITIDA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL YONDASHUVI <i>Adizov Bobir Baxtiyorovich</i>	77
19	AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY SAMARADORLIGI <i>Qurbanov Ulug'bek Erkinovich</i>	80
20	ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISHNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Ergashev Rustam Rajabovich</i>	84

21	TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA MONITORING QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Djamalov G'ofir Oribjanovich</i>	88
22	O'ZBEKISTONDA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA NATIJADORLIK MUAMMOLARI <i>Ergashev Rustam Rajabovich</i>	93
23	O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Vaxabov Bobur Alisherovich</i>	97



ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISHNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashev Rustam Rajabovich

Innovatsion rivojlanish agentligi Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
E-mail: darkman_07@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ilmiy ishlarni tijoratlashtirishni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari tizimlashtirilgan hamda "ilmiy natija", "ilmiy ishlanma", "texnologiyalar transferi", "joriy etish", "innovatsiya" va "tijoratlashtirish" kategoriyalarining iqtisodiy mazmuni va o'zaro chegaralari aniqlashtirilgan. Ilmiy natijani yaratish, uni amaliy yechimga aylantirish va bozorda iqtisodiy qiymat yaratish bir-biriga bog'liq, biroq mazmunan farqlanuvchi jarayonlar ekanligi asoslangan. Tijoratlashtirishning asosiy farqlovchi belgisi sifatida mustaqil iqtisodiy subyektning mavjudligi, huquqiy yoki iqtisodiy bitim, tekshiriladigan to'lov hamda qiymat yaratishning takrorlanish imkoniyati ajratilgan. Institutsional yondashuv, resurslarga asoslangan nazariya, dinamik qobiliyatlar, ochiq innovatsiyalar, Triple Helix, innovatsiyalar diffuziyasi va bosqichli boshqaruv konsepsiyalarining tijoratlashtirish jarayonidagi funksional o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ilmiy ishlarni tijoratlashtirishni boshqarish tushunchasi ishlanmaning texnik, huquqiy va bozor tayyorligini oshirish, tranzaksiya xavflarini kamaytirish hamda ilmiy bilimdan takrorlanuvchi iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratishga yo'naltirilgan qarorlar, resurslar, huquqlar, rag'batlar va qaytuvchi aloqalarning o'zaro bog'langan tizimi sifatida takomillashtirilgan. Shuningdek, tijoratlashtirish boshqaruvi institutsional-huquqiy, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, moliyaviy-iqtisodiy, bozor va talab, infratuzilmaviy, motivatsion hamda raqamli-axborot funksional bloklarining o'zaro to'ldiruvchanligiga asoslanishi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy ishlanma, tijoratlashtirish, texnologiyalar transferi, innovatsiya, institutsional yondashuv, dinamik qobiliyatlar, ochiq innovatsiyalar, Triple Helix, tijoratlashtirish boshqaruvi, iqtisodiy qiymat.

Abstract: The article systematizes the theoretical and methodological foundations of research commercialization management and clarifies the economic boundaries among scientific results, research developments, technology transfer, implementation, innovation, and commercialization. It argues that creating new scientific knowledge, transforming it into an applicable solution, and generating market value represent interconnected but analytically distinct processes. The defining characteristics of commercialization are identified as the involvement of an independent economic actor, the existence of a legally or economically verifiable transaction, a confirmed payment, and the potential for repeated value creation. Institutional theory, the resource-based view, dynamic capabilities, open innovation, the Triple Helix framework, diffusion of innovations, and stage-based management approaches are synthesized to explain different dimensions of commercialization. The study proposes an improved definition of research commercialization management as an integrated system of decisions, resources, rights, incentives, and feedback aimed at improving the technological, legal, and market readiness of research developments, reducing transaction risks, and generating repeatable economic and social value from scientific knowledge. Seven complementary functional blocks of commercialization management are identified: institutional-legal, organizational-coordination, financial-economic, market and demand, infrastructure, motivational, and digital-information mechanisms.

Keywords: research development, commercialization, technology transfer, innovation, institutional approach, dynamic capabilities, open innovation, Triple Helix, commercialization management.

Абстрактный: В статье систематизируются теоретические и методологические основы управления коммерциализацией научных разработок и уточняются экономическое содержание и взаимные границы категорий «научный результат», «научная разработка», «трансфер технологий», «внедрение», «инновация» и «коммерциализация». В основе лежит тот факт, что создание научного результата, его превращение в практическое решение и создание экономической ценности на рынке являются взаимосвязанными, но содержательно различными процессами. Основными отличительными чертами коммерциализации являются наличие независимого экономического субъекта, юридически или экономическая сделка, проверяемая оплата и возможность повторного создания ценности. Анализируется функциональная роль концепций институционального подхода, ресурсной теории, динамических возможностей, открытых инноваций, «тройной спирали», диффузии инноваций и поэтапного управления в процессе коммерциализации. В результате исследования концепция управления коммерциализацией научных разработок была уточнена как взаимосвязанная система решений, ресурсов, прав, стимулов и обратных связей, направленная на повышение технической, правовой и рыночной готовности разработки, снижение транзакционных рисков и создание постоянной экономической и социальной ценности научных знаний. Также предлагается, чтобы управление коммерциализацией основывалось на взаимодополняемости институционально-правовых, организационно-координационных, финансово-экономических, рыночных и потребительских, инфраструктурных, мотивационных и цифрово-информационных функциональных блоков.

Ключевые слова: научное развитие, коммерциализация, трансфер технологий, инновации, институциональный подход, динамические возможности, открытые инновации, тройная спираль, управление коммерциализацией, экономическая ценность.

Kirish (Введение/Introduction).

Zamonaviy innovatsion iqtisodiyotda ilmiy faoliyat natijadorligi faqat yangi bilim, ilmiy maqola, patent yoki laboratoriya namunasi yaratish bilan chegaralanmaydi. Ilmiy natijaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ko'p jihatdan uning real ehtiyojga mos yechimga aylanishi va iqtisodiy muomalaga kirish qobiliyatiga bog'liq. Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib, yangi bilim va ixtiroi ularning iqtisodiy qo'llanishidan farqlagan [1]. Arrow ilmiy va innovatsion faoliyatning yuqori noaniqligi,

axborot assimetriyasi hamda bilimdan foyda olishning murakkabligi sababli bozor mexanizmi ilmiy natijalarni o'z-o'zidan optimal iqtisodiy qiymatga aylantira olmasligini ko'rsatgan [2].

Bu masala davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy faoliyatda ayniqsa dolzarb. Ilmiy loyiha muvaffaqiyatli yakunlanishi hali uning natijasi iqtisodiy muomalaga kirganini anglatmaydi. Masalan, yangi texnologik usul ilmiy natija, uning asosida yaratilgan tajriba qurilmasi ilmiy ishlanma, qurilmadan tashkilotning o'z faoliyatida foydalanishi joriy etish, foydalanish huquqining boshqa iqtisodiy subyektga o'tishi esa

texnologiyalar transferi bo'lishi mumkin. Mustaqil xaridor bilan iqtisodiy bitim va to'lov yuzaga keldandagina jarayon tijoratlashtirishning aniq iqtisodiy mazmuniga yaqinlashadi. Shu sababli ushbu kategoriyalarni tenglashtirish tijoratlashtirish ko'rsatkichlarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni innovatsion faoliyat va yangi ishlanmalarni iqtisodiy muomalaga kiritish uchun milliy huquqiy asosni belgilaydi [3]. OECD/Eurostatning Oslo Manual qo'llanmasi ham innovatsiyaning yangilik yaratishning o'zi bilan emas, mahsulot yoki jarayonning amaliy joriy etilishi bilan bog'liqligiga metodologik e'tibor qaratadi [4]. WIPOning texnologiyalar transferiga oid yondashuvi ilmiy natijaning laboratoriyadan bozorgacha bo'lgan harakatini intellektual mulk, hamkorlik, litsenziyalash va bozor aloqalarini o'zaro bog'lovchi jarayon sifatida ko'radi [5]. Shu nuqtai nazardan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni boshqarish alohida iqtisodiy va boshqaruv kategoriyasi sifatida nazariy jihatdan aniqlashtirilishi zarur. Mazkur maqolaning maqsadi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bilan bog'liq asosiy kategoriyalarning mazmuniy chegaralarini aniqlashtirish, asosiy nazariy yondashuvlarni yagona metodologik tizimga birlashtirish hamda tijoratlashtirishni boshqarishning takomillashtirilgan iqtisodiy ta'rifini shakllantirishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish ko'p fanli ilmiy muammo bo'lib, iqtisodiyot, strategik menejment, innovatsiyalar nazariyasi, institutsional iqtisodiyot va texnologiyalar transferi tadqiqotlarida turli jihatlaridan o'rganilgan. Nazariy adabiyotlarda tijoratlashtirishning turli jihatlari izohlanadi. Schumpeter innovatsiyani yangi bilimning iqtisodiy kombinatsiyaga aylanishi bilan bog'lagan [1], Arrow ilmiy bilim ishlab chiqarishdagi noaniqlik va xususiy-ijtimoiy manfaat tafovutini ko'rsatgan [2], Teece esa texnologik innovatsiyadan qiymat olishda appropriability regime va complementary assets rolini asoslagan [6]. Rogers innovatsiyani qabul qilish jarayonini kommunikatsiya, vaqt va ijtimoiy tizim bilan bog'laydi [7], Freeman va Lundvall esa innovatsion natijani milliy innovatsion tizim subyektlari aloqalari orqali tushuntiradi [8], [9]. Triple Helix [10], ochiq innovatsiyalar [11], dinamik qobiliyatlar [12] va Stage-Gate [13] yondashuvlari mos ravishda davlat-fan-biznes hamkorligi, tashqi bilim oqimlari, moslashuvchanlik va bosqichli qarorlarning nazariy asosini beradi. Empirik tadqiqotlar universitet ixtirolarining ko'pincha litsenziyalash paytida hali to'liq tayyor bo'lmashligini [14], tashkilotlar bo'yicha litsenziyalash samaradorligi farqlanishini [15], tashkiliy amaliyotlarning texnologiyalar transferiga ta'sirini [16], iqtisodiy rag'batlarning ixtirochilikka ta'sirini [17] va akademik tijoratlashtirishning universitet-sanoat hamkorligining faqat bir qismi ekanini [18] ko'rsatadi. Texnologiyalar transferi ofislarining turli biznes modellari ham yagona universal tashkiliy yechim mavjud emasligini tasdiqlaydi [22]. O'zbekistonda A.E. Norov [19] tijoratlashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini, X.X. Daliyev [20] innovatsion infratuzilma masalalarini o'rgangan; OECD tahlillari esa davlat ilmiy tadqiqotlarini bozorga olib chiqishda turli transfer kanallarining institutsional ahamiyatini ko'rsatadi [21]. Ushbu adabiyotlar ilmiy ishlanmaning yangi bilimdan bozor qiymatigacha bo'lgan harakatini yagona, o'zaro bog'langan boshqaruv tizimi sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud nazariyalarni tijoratlashtirishning alohida qismlarini yaxshi tushuntiradi. Biroq ilmiy ishlanmaning yangi bilimdan bozor qiymatigacha bo'lgan harakatini boshqarish uchun ularni o'zaro bog'langan metodologik tizim sifatida ko'rish zarur.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы/Methods).

Tadqiqotda tizimli tahlil, kategoriya tahlili, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya va nazariy sintez usullaridan foydalanildi. Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi: avvalo tijoratlashtirish bilan bog'liq tushunchalarning iqtisodiy chegaralari aniqlashtirildi; keyin yetakchi nazariy yondashuvlarning qaysi boshqaruv muammosini tushuntirishi baholandi; yakunda ular o'zaro to'ldiruvchi funksional

mexanizmlarga sintez qilindi. Metodologik pozitsiyaga ko'ra, tijoratlashtirish natijasini bitta indikator yoki bitta institutsional vosita bilan izohlash mumkin emas: iqtisodiy qiymat yaratish huquq, tashkilot kompetensiyasi, resurs, bozor, infratuzilma, rag'bat hamda axborot va qaytuvchi aloqaning o'zaro ta'siriga bog'liq.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Tadqiqot natijasida tijoratlashtirish jarayonida ishlatiladigan yettita tushunchaning mazmuniy chegaralari aniqlashtirildi.

1-jadval.

Tijoratlashtirish bilan bog'liq asosiy kategoriyalarning mazmuniy farqlari¹

Kategoriya	Asosiy mazmuni	Tijoratlashtirishdan farqi
Ilmiy natija	Yangi bilim, usul, qonuniyat yoki ilmiy xulosa	Bozor munosabati mavjud bo'lishi shart emas
Ilmiy ishlanma	Ilmiy bilimning texnik yoki tashkiliy yechimga aylangan shakli	Hali mustaqil xaridor bo'lmashligi mumkin
Intellektual mulk	Natija yoki ishlanmaga nisbatan huquqiy himoya	Huquqning mavjudligi iqtisodiy bitim mavjudligini bildirmaydi
Texnologiyalar transferi	Texnologiya yoki undan foydalanish huquqining boshqa subyektga o'tishi	Transfer bepul yoki tijoriy bo'lishi mumkin
Joriy etish	Yechimdan amaliy faoliyatda foydalanish	Joriy etish ichki va to'lovsiz ham bo'lishi mumkin
Innovatsiya	Yangi yoki sezilarli yaxshilangan mahsulot yoki jarayonning amaliy qo'llanilishi	Har bir innovatsiya alohida ilmiy ishlanmadan kelib chiqmasligi mumkin
Tijoratlashtirish	Ilmiy ishlanmaning iqtisodiy muomalaga kirib, tekshiriladigan qiymat yaratishi	Mustaqil iqtisodiy munosabatni talab qiladi

Mazkur farqlash statistik va boshqaruv hisobotlari uchun muhim: patent huquqiy himoya vositasi, prototip texnik rivojlanish natijasi, tashkilotning texnologiyadan o'z faoliyatida foydalanishi joriy etish bo'lishi mumkin. Tijoratlashtirish esa iqtisodiy subyektlar o'rtasida tekshiriladigan qiymat almashinuvi yuzaga kelishini nazarda tutadi.

Tijoratlashtirishning farqlovchi belgisi

Tadqiqot natijasida tijoratlashtirishni boshqa yaqin kategoriyalardan ajratuvchi to'rtta belgi — mustaqil iqtisodiy subyekt, bitim, to'lov va takrorlanuvchi qiymat yaratish imkoniyati — shakllantirildi. Mustaqil subyekt ichki joriy etish bilan tashqi bozor munosabatini farqlaydi, bitim huquq va majburiyatni rasmiylashtiradi, to'lov texnologiyaga iqtisodiy qiymat berilganini ko'rsatadi, takrorlanuvchi qiymat esa bir martaalik ma'muriy hodisadan barqarorroq iqtisodiy modelni ajratishga xizmat qiladi. "Takrorlanuvchi" atamasi har bir holatda majburiy ko'p martaalik sotuvni emas, qiymat yaratishning davom etish imkoniyatini anglatadi.

Tijoratlashtirishni boshqarishning takomillashtirilgan ta'rifi

Nazariy tahlil asosida quyidagi mualliflik ta'rifi shakllantirildi:

Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni boshqarish — ilmiy ishlanmaning texnik, huquqiy va bozor tayyorligini oshirish, tranzaksiyon xavflarni kamaytirish hamda ilmiy bilimdan takrorlanuvchi iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratishga qaratilgan qarorlar, resurslar, huquqlar, rag'batlar va qaytuvchi aloqalarning o'zaro bog'langan tizimidir.

Ushbu ta'rif an'anaviy "ilmiy ishlanmani sotish" yondashuvidan kengroq bo'lib, boshqaruv tijorat bitimi tuzilgandagina emas, iqtisodiy qiymat yaratish uchun zarur shartlarni shakllantirishdan boshlanishini anglatadi. Ta'rifdagi qarorlar istiqbolli yo'nalishni tanlaydi, resurslar texnologik rivojlanishni ta'minlaydi, huquqlar qiymatdan foydalanishni belgilaydi, rag'batlar ishtirokchilar xatti-harakatiga ta'sir qiladi,

¹ Muallif ishlanmasi

qaytuvchi aloqa esa yangi ma'lumot paydo bo'lganda avvalgi qarorni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Nazariy yondashuvlarning funksional sintezi

Tijoratlashtirishning murakkabligi uni bitta nazariya bilan to'liq izohlash imkonini bermaydi. Tijoratlashtirish boshqaruvining yettita funksional bloki. Nazariy sintez asosida tijoratlashtirishni boshqarish mexanizmlari yettita funksional blokka ajratildi.

3-jadval.

Tijoratlashtirishni boshqarishning funksional bloklari

Blok	Boshqaruv mazmuni	Kutiladigan o'zgarish
Institutsional-huquqiy	Huquq, vakolat, javobgarlik va qaror qoidalarini belgilash	Huquqiy aniqlik
Tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi	Ilm-fan, biznes va boshqa subyektlar aloqasini tashkil qilish	Muvofiqlashuvning yaxshilanishi
Moliyaviy-iqtisodiy	Resursni ishlanmaning ehtiyojiga moslashtirish	Moliyaviy uzilishning kamayishi
Bozor va talab	Foydalanuvchi muammosi va iqtisodiy qiymatni aniqlash	Bozor noaniqligining kamayishi
Infratuzilmaviy	Laboratoriya, sinov, prototiplash va sertifikatlash imkoniyatlari	Texnik tayyorlikning oshishi
Motivatsion	Ishtirokchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish	Faollik va manfaatdorlik
Raqamli-axborot	Ma'lumot, kuzatuv va qaytuvchi aloqani ta'minlash	Qaror sifatining oshishi

Ushbu bloklarning muhim xususiyati — o'zaro to'ldiruvchanlik. Yaxshi moliyalashtirish huquqiy aniqlik bo'lmasa bitimga olib kelmasligi, kuchli laboratoriya bozor axborotsiz noto'g'ri texnik yo'nalishga xizmat qilishi, rag'bat esa vakolatlar noaniq bo'lsa qaror tezligini oshirmasligi mumkin. Shu sababli tijoratlashtirish siyosatini bitta universal vositaga emas, muammoning tabiatiga mos mexanizmlar kombinatsiyasiga asoslash maqsadga muvofiq.

Faoliyat ko'rsatkichidan qiymat yaratish mantig'iga o'tish

Tijoratlashtirishni boshqarish nazariyasidagi muhim xulosa — resurs yoki faoliyat ko'rsatkichlarini yakuniy natija sifatida qabul qilmaslikdir.

Mablag', patent, loyiha, uchrashuv va infratuzilma tizim faoliyatining kengayganini ko'rsatishi mumkin, biroq ularning iqtisodiy natijasi alohida aniqlanishi kerak. Shu sababli umumiy nazariy bog'lanish "boshqaruv mexanizmi → oraliq o'zgarish → keyingi holatga o'tish → tijorat natijasi → iqtisodiy yoki ijtimoiy qiymat" ko'rinishida ifodalanadi. Mazkur zanjir batafsil monitoring metodikasini emas, mexanizm qaysi oraliq o'zgarish orqali qiymat yaratishi kerakligini ko'rsatuvchi nazariy mantiqni ifodalaydi.

Olingan natijalar tijoratlashtirishni faqat "ilmiy natijani sotish" sifatida talqin qilish nazariy jihatdan tor ekanini ko'rsatadi. Ilmiy natija bozorga tayyor obyekt bo'lmasligi mumkin; iqtisodiy qiymat yaratish esa texnologiya bilan birga institutsional shartlar, tashqi resurslar va to'ldiruvchi aktivlarni talab qiladi [6], [11]. Shu sababli huquqiy aniqlik, tashkilot kompetensiyasi va tashqi hamkorlik tijoratlashtirish tezligi hamda natijasiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar sifatida ko'riladi.

Tijoratlashtirishni faqat daromad bilan cheklash ham maqsadga muvofiq emas, chunki ayrim ishlanmalar iqtisodiy natija bilan birga ijtimoiy, ekologik yoki strategik qiymat yaratishi mumkin. Shu bois mualliflik ta'rifida iqtisodiy va ijtimoiy qiymat birgalikda saqlab qoling. Yettita funksional blok esa mustaqil dasturlar ro'yxati emas, balki boshqaruv muammosini to'g'ri tasniflash vositasidir: bozor axboroti muammosini faqat moliya bilan, huquqiy noaniqlikni faqat infratuzilma bilan yoki kompetensiya muammosini faqat yangi normativ hujjat bilan bartaraf etib bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, ilmiy natija, ilmiy ishlanma, intellektual mulk, texnologiyalar transferi, joriy etish, innovatsiya va tijoratlashtirish o'zaro bog'liq, ammo mazmunan teng bo'lmagan kategoriyalardir. Tijoratlashtirishni boshqa yaqin tushunchalardan mustaqil iqtisodiy subyekt, bitim, to'lov hamda takrorlanuvchi qiymat yaratish imkoniyati ajratib turadi. Ikkinchidan, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni boshqarish texnik, huquqiy va bozor tayyorligini oshirish, tranzaksiyon xavflarni kamaytirish hamda ilmiy bilimdan iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratishga yo'naltirilgan qarorlar, resurslar, huquqlar, rag'batlar va qaytuvchi aloqalar tizimi sifatida talqin qilinishi lozim. Uchinchidan, institutsional-huquqiy, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, moliyaviy-iqtisodiy, bozor va talab, infratuzilmaviy, motivatsion hamda raqamli-axborot bloklarining o'zaro to'ldiruvchanligi tijoratlashtirish boshqaruvining metodologik asosini tashkil etadi. Shunday qilib, tijoratlashtirish alohida vositalar yig'indisi emas, ilmiy bilimni bozor va jamiyat uchun qiymatga aylantiruvchi ko'p subyektki va qaytuvchi aloqaga ega boshqaruv tizimi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/References):

- [1] J. A. Schumpeter, The Theory of Economic Development. Cambridge, MA, USA: Harvard University Press, 1934.
- [2] K. J. Arrow, "Economic welfare and the allocation of resources for invention," in The Rate and Direction of Inventive Activity. Princeton, NJ, USA: Princeton University Press, 1962, pp. 609–626.
- [3] O'zbekiston Respublikasi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida," O'RQ-630-son Qonun, 2020-yil 24-iyul.
- [4] OECD/Eurostat, Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation, 4th ed. Paris, France: OECD Publishing, 2018, doi: 10.1787/9789264304604-en.
- [5] World Intellectual Property Organization, Knowledge and Technology Transfer: From Lab to Market. Geneva, Switzerland: WIPO.
- [6] D. J. Teece, "Profiting from technological innovation: Implications for integration, collaboration, licensing and public policy," Research Policy, vol. 15, no. 6, pp. 285–305, 1986, doi: 10.1016/0048-7333(86)90027-2.
- [7] E. M. Rogers, Diffusion of Innovations, 5th ed. New York, NY, USA: Free Press, 2003.
- [8] C. Freeman, Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. London, U.K.: Pinter Publishers, 1987.
- [9] B.-Å. Lundvall, Ed., National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London, U.K.: Pinter Publishers, 1992.
- [10] H. Etzkowitz and L. Leydesdorff, "The dynamics of innovation: From National Systems and 'Mode 2' to a Triple Helix of university–industry–government relations," Research Policy, vol. 29, no. 2, pp. 109–123, 2000.
- [11] H. W. Chesbrough, Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Boston, MA, USA: Harvard Business School Press, 2003.
- [12] D. J. Teece, G. Pisano, and A. Shuen, "Dynamic capabilities and strategic management," Strategic Management Journal, vol. 18, no. 7, pp. 509–533, 1997.
- [13] R. G. Cooper, "Stage-Gate systems: A new tool for managing new products," Business Horizons, vol. 33, no. 3, pp. 44–54, 1990.

- [14] R. Jensen and M. Thursby, "Proofs and prototypes for sale: The licensing of university inventions," *American Economic Review*, vol. 91, no. 1, pp. 240–259, 2001.
- [15] J. G. Thursby and S. Kemp, "Growth and productive efficiency of university intellectual property licensing," *Research Policy*, vol. 31, no. 1, pp. 109–124, 2002.
- [16] D. S. Siegel, D. A. Waldman, and A. N. Link, "Assessing the impact of organizational practices on the relative productivity of university technology transfer offices," *Research Policy*, vol. 32, no. 1, pp. 27–48, 2003.
- [17] S. Lach and M. Schankerman, "Incentives and invention in universities," *RAND Journal of Economics*, vol. 39, no. 2, pp. 403–433, 2008.
- [18] M. Perkmann, V. Tartari, M. McKelvey et al., "Academic engagement and commercialisation: A review of the literature on university–industry relations," *Research Policy*, vol. 42, no. 2, pp. 423–442, 2013.
- [19] A. E. Norov, "Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari," *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, no. 1, pp. 116–126, 2020.
- [20] X. X. Daliyev, "Ilmiy-texnik ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirish masalalari," *Moliya va bank ishi*, 2022.
- [21] OECD, *Commercialising Public Research: New Trends and Strategies*. Paris, France: OECD Publishing, 2013.
- [22] D. Baglieri, F. Baldi, and C. L. Tucci, "University technology transfer office business models: One size does not fit all," *Technovation*, vols. 76–77, pp. 51–63, 2018, doi: 10.1016/j.technovation.2018.05.003.